

“UzGasTrade” AJ
Yagona aksiyadorining
2022 yil “30” sentabr dagi
5 -sonli qaroriga

7-ILOVA

“TASDIQLANGAN”

“UzGasTrade” AJ
Yagona aksiyadorining
2022 yil “30” sentabr dagi
5 -son qarori bilan

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATI
ICHKI NAZORATI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent - 2022 yil

MUNDARIJA:

| | | |
|----|---|---|
| 1. | UMUMIY QOIDALAR..... | 3 |
| 2. | ICHKI NAZORAT TIZIMI TAVSIFI VA MAQSADLARI..... | 3 |
| 3. | ICHKI NAZORAT TIZIMI FAOLIYATINING ASOSIY TARTIB QOIDALARI..... | 4 |
| 4. | ICHKI NAZORAT TIZIMINING TARKIBIY QISMLARI..... | 5 |
| 5. | ICHKI NAZORAT UCHUN MAS'UL ORGANLAR VA SHAXSLAR..... | 5 |
| 6. | ICHKI NAZORAT TADBIRLARI VA USULLARI..... | 7 |
| 7. | YAKUNIY QOIDALAR..... | 8 |

I. UMUMIY QOIDALAR

1. “UZGASTRADE” aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon - Jamiyat)ning mazkur Ichki nazorat to‘g‘risidagi Nizomi (keyingi o‘rinlarda – Nizom deb ataladi), O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha komissiya majlisining 2015 yil 31 dekabrda 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi, “UZGASTRADE” aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon - Jamiyat) Ustavi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom ichki nazorat tizimi maqsadlari va vazifalarini, uning faoliyat tamoyillarini, shuningdek Jamiyatning ichki nazorat uchun mas‘ul organlari va shaxslarini belgilaydi.

II. ICHKI NAZORAT TIZIMI TAVSIFI VA MAQSADLARI

3. Ichki nazorat – Jamiyat maqsadlariga asoslangan va yetarli darajada erishish, Jamiyat faoliyatining quyidagi tamoyillarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida Jamiyat faoliyatiga biriktirilgan va tavakkalchiliklarni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan uzluksiz amal qiluvchi jarayondan iborat:

- faoliyat samaradorligi va unumdorligi, shu jumladan faoliyat samaradorligi darajasi, foyda olish va aktivlarni himoya qilish; - moliyaviy hisobot ishonchliligi va shubhasiz to‘g‘riligi;

- Jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarga va huquq me‘yorlariga muvofiqligi.

4. Ichki nazorat tizimi – Jamiyatda Ichki audit xizmati, Kuzatuv kengashi, Ijroiya organi hamda boshqa barcha darajadagi va barcha funksiyalar bo‘yicha xodimlar (quyida matn bo‘yicha – “ichki nazorat sub‘ektlari”) tomonidan tashkil qilingan va amalga oshiriladigan ichki hujjatlar bilan qat‘iy belgilangan ichki nazoratning tashkiliy tuzilmasi, nazorat qiluvchi choralari, tadbirlari va usullari majmuidan iborat. Jamiyatning ichki nazorat organlari a‘zolari malakalari ular faoliyati to‘g‘risidagi Nizomlarda belgilanishi mumkin.

5. Ichki nazorat tadbirlari –Jamiyatning audit, Jamiyatning Kuzatuv kengashi, Jamiyat Ijroiya organi, shuningdek ichki nazoratni amalga oshirish vakolati berilgan Jamiyat bo‘linmalari (quyida matn bo‘yicha – “Jamiyat bo‘linmalari”) tomonidan amalga oshiriladigan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda qonunlar va Jamiyatning ichki hujjatlari talablari buzilishlarini aniqlashga, Jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish samaradorligini, shuningdek ichki nazorat tadbirlarini amalga oshirish jarayonida ichki nazorat sub‘ektlarining o‘zaro hamkorligini baholashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat.

6. Ichki nazoratning asosiy maqsadi barcha aksiyadorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashdan iborat.

7. Ichki nazorat operativ rejimda quyidagilarni ta‘minlashga mo‘ljallangan:

- Jamiyat aktivlarini yaxshi saqlash, resurslaridan tejamli va samarali foydalanish;

- amaldagi qonunlar va Jamiyatning ichki hujjatlari talablariga rioya qilish;

- Jamiyatning rivojlanish strategiyasini, Jamiyatning biznes-rejalarini o‘rta va uzoq muddatli davrda bajarish;

- Jamiyatning buxgalteriya hujjatlari, moliya hisobotlari va boshqaruv axboroti toʻliqligi va shubhasiz toʻgʻriligi;

- Jamiyat faoliyatida tavakkalchiliklar yuzaga kelgan paytda aniqlash, identifikatsiyalash va tahlil qilish;

- Jamiyat faoliyatida tavakkalchiliklarni rejalashtirish va boshqarish, shu jumladan tavakkalchilikni boshqarish boʻyicha zamonaviy va mos qarorlar qabul qilish;

- amaliy doiralarda va isteʼmolchilarda Jamiyatning ijobiy obroʻ-eʼtiborini belgilash va bir maromda saqlash;

- Ijroiya organi, Kuzatuv kengashi aʼzolariga va kotibiga ish haqi va badallar toʻlovi, shu jumladan uning miqdorlari mosligi, shaffofligi va obʻektivligi.

III. ICHKI NAZORAT TIZIMI FAOLIYATINING ASOSIY TARTIB QOIDALARI

8. Jamiyatda ichki nazorat tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil qilinadi:

- uzluksiz faoliyat olib borish – ichki nazorat tizimining doimiy va tegishlicha faoliyat yuritishi Jamiyatga meʼyordan har qanday chetga chiqishlar (ogʻishlar)ni oʻz vaqtida aniqlash va kelgusida ular yuzaga kelishining oldini olish imkonini beradi;

- ichki nazorat tizimi barcha ishtirokchilarining hisobdorligi – har bir shaxs tomonidan nazorat funksiyalarining bajarilish sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchisi tomonidan nazorat qilib boriladi;

- vazifalar taqsimlanishi – Jamiyat nazorat funksiyalari bir-birini takrorlashiga yoʻl qoʻyilmasligiga va ushbu funksiyalar xodimlar oʻrtasida muayyan aktivlar bilan operatsiyalarni tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, aktivlar saqlanishini taʼminlash va ular inventarizatsiyasini oʻtkazish bilan bogʻliq funksiyalarning bir shaxsning oʻzi tomonidan bajarilmaydigan tarzda taqsimlanishiga intiladi;

- operatsiyalarning tegishlicha maʼqullanishi va tasdiqlanishi – Jamiyat vakolatli shaxslar tomonidan ularning taalluqli vakolatlari doirasida barcha moliyaxoʻjalik operatsiyalari tasdiqlanishi tartibini belgilashga intiladi;

- Jamiyatning kundalik ichki nazoratini amalga oshiradigan boʻlinmalarining oʻzaro tashkiliy bogʻliqligini va uning bevosita Jamiyat rahbariga, Audit qoʻmitasi orqali Kuzatuv kengashiga funksional hisobdorligini taʼminlash;

- Jamiyat ishlaydigan barcha ichki nazorat subʼektlarining nazorat funksiyalarining tegishlicha bajarilishi uchun javobgarligi;

- Jamiyat barcha boʻlinmalarining oʻzaro aniq hamkorligi asosida ichki nazoratni amalga oshirish;

- doimiy rivojlanish va takomillashish – Jamiyat ichki nazorat tizimining yangi vazifalarni hal qilish zarurati hisobga olingan holda moslashuvchan sozlanishi, tizimning oʻzini kengaytirish va takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni taʼminlashga intiladi;

- chetga chiqishlar (ogʻishlar) toʻgʻrisidagi xabarlarining oʻz vaqtida uzatilishi – Jamiyatda chetga chiqishlar (ogʻishlar)ni bartaraf qilish toʻgʻrisida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega shaxslarga tegishli xabarlar uzatilishining maksimal qisqa muddatlari belgilangan;

- Jamiyat faoliyatining nazorat yoʻlga qoʻyilayotgan sohalari ustuvorligini belgilash – ichki nazorat tizimi bilan qamrab olinadigan strategik yoʻnalishlar ajratib koʻrsatiladi.

IV. ICHKI NAZORAT TIZIMINING TARKIBIY QISMLARI

9. Ichki nazorat tizimi quyidagi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyat xodimlarining odob-axloq qadriyatlarini va bilimdonliklarini, rahbarlik siyosatini, rahbariyat tomonidan vakolatlar va javobgarliklarni taqsimlash usuli, tashkil qilish tuzilishi va xodimlar malakalari oshirilishini, shuningdek Kuzatuv kengashi tomonidan rahbarlik va boshqaruvni o'z ichiga oladigan nazorat muhiti;

- tavakkalchiliklarni baholash – turli darajalarda o'zaro bog'liq va ichki izchil muayyan vazifalarni bajarishda taalluqli tavakkalchiliklarni identifikatsiyalash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi;

- Jamiyat rahbariyati qarorlarining tegishli ijtisodiy kafolatlaydigan siyosat va tadbirlar umumlashtiruvchi va ma'qullashlar, jarimalar, tasdiqnomalar berish, tekshiruvlar o'tkazish, joriy faoliyat nazorati, aktivlar xavfsizligi kafolati va vakolatlarni taqsimlash kabi bir qator turli xil harakatlarni o'z ichiga oluvchi nazorat bo'yicha faoliyat;

- ma'lumotlarni o'z vaqtida samarali aniqlash, ularni ro'yxatdan o'tkazish va ularni ayirboshlashga yo'naltirilgan, shu jumladan barcha ichki nazorat sub'ektlarida Jamiyatda qabul qilingan ichki nazorat siyosati va tadbirlari tushunchasini shakllantirish va ular ijrosini ta'minlash maqsadida axborot almashinuvi samarali kanallari tashkil qilinishini o'z ichiga oladigan axborot ta'minoti va axborot almashinuvi bo'yicha faoliyat. Jamiyat axborotdan ruxsatsiz foydalanishdan himoyalani uchun chora-tadbirlar ko'radi;

- monitoring – boshqaruv va nazorat funksiyalarini o'z ichiga oladigan jarayon bo'lib, ushbu jarayon davomida vaqt o'tishi bilan tizimning ishlash sifati baholanadi.

Ichki nazorat tizimini baholash moliya hisobotining shubhasiz to'g'riligiga ta'sir ko'rsatuvchi xatolar yuzaga kelish ehtimolini aniqlash, ushbu xatolar jiddiyligini aniqlash va ichki nazorat tizimining belgilangan vazifalar bajarilishini ta'minlash imkoniyatini belgilash uchun o'tkaziladi. Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash uchun Jamiyatda Kuzatuv kengashi taklifi asosida Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan mustaqil professional tashkilot – konsultant jalb qilinishi mumkin.

V. ICHKI NAZORAT UCHUN MAS'UL ORGANLAR VA SHAXSLAR

10. Ichki nazorat Jamiyatning kuzatuv kengashi qoshidagi Audit qo'mitasi, Jamiyatning Kuzatuv kengashi, Ijroiya organi rahbari, Ichki audit xizmati, shuningdek Jamiyatning barcha darajalardagi xodimlari tomonidan ularning amaldagi qonunlar va Jamiyatning ichki mahalliy hujjatlari bilan belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

11. Jamiyatda faoliyat yuritadigan bo'linmalar vazifalari, huquqlari va majburiyatlari, javobgarligi, ularga to'lanadigan badallar va ish haqlarini hisobkitob qilish tartibi Jamiyatning ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan. Mazkur hujjatlar, boshqa hujjatlar kabi bevosita yoki bilvosita ichki nazorat masalalariga daxldor bo'lib, mazkur Nizomga zid kelishi mumkin emas.

12. Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyati nazoratining tizimli xususiyatini ta'minlash maqsadida Ichki audit xizmati, Ijroiya organi rahbari, yuridik – buxgalteriya xizmati, bo'lim boshliqlari va Jamiyatning 6 ichki nazorat funksional vazifalarini bajaradigan barcha xodimlari ichki nazorat tadbirlari o'tkazilishini amalga oshiradilar.

13. Kuzatuv kengashi funksiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ichki nazorat tizimi muayyan operatsiyalari va strategiyalarini rivojlantirish va tasdiqlash yo‘nalishlarini belgilash;

- Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishida Jamiyat ijroiya organi, ichki va tashqi auditlar, boshqa manbalardan va ichki nazoratning barcha sohalari, shu jumladan moliya nazorati, operatsion nazorat, qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat, ichki siyosat va tadbirlar nazorati bo‘yicha shaxsiy kuzatuvlardan olinadigan axborot ma‘lumotlariga asoslangan ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligining har yil o‘tkaziladigan tahlili va baholanishi natijalari to‘g‘risida xabar berish;

- Jamiyat bo‘linmalari tuzilishi va tarkibini, ichki nazorat uchun mas‘ul shaxsni belgilash;

- ichki nazorat tadbirlarini doimiy takomillashtirish.

14. Moliya hisobotlarining shubhasiz to‘g‘riligi va to‘liqligi, Jamiyat ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligi ustidan nazorat tashkil qilinishi uchun javobgarlik Kuzatuv kengashi qoshidagi Audit qo‘mitasiga yuklanadi, uning roli, maqsadlari, vazifalari va vakolatlari Jamiyatning Kuzatuv kengashi qoshidagi Audit qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomda aks ettirilgan.

15. Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Jamiyat ichki nazorati sohasidagi siyosatiga muvofiq faoliyat yuritishi uchun javobgarlik Ijroiya organ rahbariga yuklanadi. Jamiyatning Ijroiya organ rahbari ichki nazorat tizimi tadbirlarini tatbiq qiladi va uning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydi, Kuzatuv kengashini Jamiyatning barcha tavakkalchiliklari, ichki nazorat tizimining jiddiy kamchiliklari, shuningdek ularni bartaraf qilish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalari va natijalari to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qiladi.

16. Har qanday darajadagi bo‘linmalar xodimlari (shu jumladan rahbarlari) o‘z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish bo‘yicha batafsil strategiyalar va tadbirlar ishlab chiqishda bevosita ishtirok qiladilar. Jiddiy masalalar yoki muayyan bitim bo‘yicha yuzaga kelgan tavakkalchiliklar to‘g‘risida xodimlar Jamiyatning yuqori rahbariyatiga xabar beradilar.

17. Jamiyat va uning alohida bo‘linmalari moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun javobgarlik doimiy amal qiluvchi ichki nazorat organi – Jamiyat kuzatuv kengashi qoshidagi Audit ko‘mitasiga va ichki audit xizmatiga yuklanadi, uning roli, maqsadlari, vazifalari va vakolatlari ularning nizomlarida aks ettirilgan.

18. Ichki nazorat tadbirlari ijrosi ustidan, aynan esa Jamiyatning amalga oshirilayotgan moliya-xo‘jalik operatsiyalarining O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va umuman Jamiyat, uning alohida bo‘linmalari Ustaviga muvofiqligi ustidan, shuningdek buxgalteriya va moliya hisoboti to‘liqligi va shubhasiz ishonchliligi ustidan muntazam nazoratning amalga oshirilishi uchun javobgarlik Ichki audit xizmatiga yuklanadi, uning roli, maqsadlari, vazifalari va vakolatlari Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi Nizomda aks ettirilgan. Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi Nizom Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

19. Jamiyatning Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashi qoshidagi Audit qo‘mitasi oldida ichki audit, ichki nazorat tizimi natijalari to‘g‘risida hisobot beradi.

20. Quyidagi shaxslar Jamiyatning Ichki audit xizmatida lavozimlarni egallash huquqiga ega emas:

- iqtisodiyot sohasida jinoyat uchun yoki tartibga qarshi jinoyat uchun to'lanmagan sudlanganlikka ega shaxslar;

- Jamiyat rahbari yoki ijroiya organi a'zosi hisoblangan shaxs. Kuzatuv kengashi tomonidan Ichki audit xizmati tarkibiga kiruvchi shaxslarga boshqa talablar belgilanishi mumkin.

21. Ichki nazorat tizimining tegishlicha faoliyat yuritishi xodimlarning malakalariga ham bog'liq. Jamiyat kadrlarni tanlash, yollash, o'qitish, tayyorlash va xodimlarning xizmat martabalarini oshirish tizimi ularning yuqori malakasini ta'minlashi va ular tomonidan barcha odob-axloq standartlariga rioya qilinishi uchun chora-tadbirlar ko'radi.

VI. ICHKI NAZORAT TADBIRLARI VA USULLARI

22. Jamiyatning ichki nazorat tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyat boshqaruvining turli darajalarida o'zaro bog'liq va bir-biriga zid maqsadlar va vazifalarni aniqlash;

- Jamiyatning faoliyat maqsadlariga erishishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan yashirin va mavjud operativ, moliya, strategik va boshqa tavakkalchiliklarni aniqlash va tahlil qilish;

- ichki nazoratning jiddiy tarkibiy qismlarini baholash;

- biznes-jarayonlarning ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash;

- Jamiyat tarkibiy bo'linmalari, mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining ish samaradorligi mezonlarini aniqlash va baholash;

- moliyaviy va boshqa ma'lumotlarni oldingi davr uchun taqqoslanadigan axborot yoki kutilayotgan faoliyat natijalari bilan solishtirish orqali ko'rib chiqish;

- voqea-hodisalar, operatsiyalar va tranzaksiyalarni hisobga olishning mos usullaridan foydalanish;

- aktivlar yaxshi saqlanishini tekshirish;

- ichki nazorat tadbirlarini tegishlicha hujjatlashtirish; - ichki nazorat tizimi sifatini muntazam baholab berish;

- Jamiyatning barcha xodimlarini ularning ichki nazorat sohasidagi majburiyatlari to'g'risida xabardor qilish;

- Jamiyat xodimlari o'rtasida muhim vazifalarni taqsimlash (shu jumladan, operatsiyalarni ma'qullash va tasdiqlash, operatsiyalar hisobini yuritish, resurslarni berish, saqlash va olish, operatsiyalarni tahlil qilish va tekshirish bo'yicha);

- operatsiyalarning faqat taalluqli vakolatlarga ega shaxslar tomonidan tasdiqlanishi va amalga oshirilishi;

- ichki nazorat maqsadlariga erishish uchun kerakli boshqa tadbirlar.

23. Ichki nazorat tadbirlarini o'tkazishda tekshirish, kuzatish, tasdiqlash, qayta hisoblash usullari, shuningdek ichki nazorat tadbirlarini amalga oshirish uchun kerakli boshqa usullar qo'llaniladi.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

24. Mazkur Nizom, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

25. Mazkur Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi, Jamiyatning tashqi auditi, Jamiyatning ichki audit xizmati a'zolari, Jamiyatning ijroiya organi rahbari takliflari bo'yicha kiritiladi.

26. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunlari va me'yoriy (normativ) hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishi natijasida mazkur Nizomning ayrim moddalari ularga zid kelsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va Jamiyat tomonidan Nizomga taalluqli o'zgartirishlar kiritiladigan paytga qadar O'zbekiston Respublikasi qonunlari va me'yoriy (normativ) hujjatlariga amal qilinadi. Bunda mazkur Nizom istalgan qismlaridan birining haqiqiy emas deb topilishi umuman butun Nizomning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.